

O'ZBEKISTONDA JINOYAT QONUNCHILIGI TARIXI (XIX ASR O'RTALARI VA XX ASRNING 90-YILLARI)

Pulatov Bekzod Adilbaevich

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Toshkent viloyati Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya. Jinoiy sud sohasi O'zbekiston mustaqillikka erishishi munosabati bilan hamda demokratik, huquqiy, dunyoviy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan yo'lning tanlanishi, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tilishi, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan shaxsnинг huquq va erkinliklari tan olinishi munosabati bilan tubdan qayta isloh etilayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu shu bilan izohlanadiki, yangi, mustaqil, demokratik sud-huquq tizimisiz mamlakatda to'laqonli ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotni tasavvur etish mumkin emas. Bu, ayniqsa, ma'muriy-buyruqbozlik boshqaruv tizimidan voz kechish hamda rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega, qonun ustuvorligi, shaxs, oila, jamiyat, davlat huquq va manfaatlarining ta'minlanishi, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini yuksaltirish, qonunga itoatkor fuqarolarni tarbiyalash, ushbu davlatning eng muhim maqsadi va vositasi hisoblanadigan chin ma'noda demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurish haqida qaror qabul qilganidan so'ng katta ahamiyat kasb eta boshladi. Mustaqil O'zbekistonning jinoyat qonunchiligini isloh etish bir masalaga oydinlik kiritishni talab qilar edi: yangi qonunchilikni yaratish yoxud amaldagi qonunlarni takomillashtirish. Ushbu masala bejizga ko'tarilmagan edi. Zamonaviy huquqiy negizni yaratish (eng asosiysi, insonlar ongidan eski totalitar tuzumning stereotiplarini chiqarib tashlash) orqali yangi davlatchilikni barpo etishga qaratilgan siyosiy irodani amalga oshirish zarur bo'lgan o'tish jarayoni sharoitlarida, qonunchilikni takomillashtirish nisbatan afzal edi, zero bu yangi sharoitlarda ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishi hamda ularning jinoyathuquqiy muhofaza qilish zaruriyatini prognozlashtirishda xatolarning oldini olishga imkon berar edi.

Kalit so'zlar: Jinoyat qonunchiligi tarixi, jamiyat, jinoyat kodeksi, jinoiy javobgarlik.

KIRISH

Rossiya tomonidan Markaziy Osiyo bosib olungunga qadar mazkur mintaqada uchta mustaqil davlat shakllangan bo'lib, Buxoro amirligi, Qo'qon xamda Xiva xonliklarida shariat qonunlariga amal qilingan. Rossiya istilosi tufayli Qo'qon xonligi tamoman tugatilib, harbiy idora qilishga asoslangan Turkiston General-gubernatorligi tuzildi¹. Qo'qon xonligining hududi Rossiya imperiyasining

¹ Bakirov X Chor Turkistonida sud, shariat va odat. -T.: «Fan», 1967, 3-bet.

gubernasi sifatida Rossiyaga qo'shib olindi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'z mustaqilligini yo'qotgan bo'lsada, ular rasmiy jihatdan saqlab qolindi va Rossiya koloniyasiga aylantirildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Markaziy Osiyoni bosib olganidan keyin, chorizm jahon kolonial siyosatining tajribalaridan kelib chiqib hamda mahalliy xalqning qaxrini kuchayishidan cho'chib, amalda bo'lган ba'zi qonunlarni xamda sud sifatida faoliyat olib borayotgan qozilarini saqlab qoldi. Qozilar shariat qonunlari asosida ishlarni ko'rib borsada biroq, ularning faoliyati cheklangan bo'lib, asosan fuqarolik ishlarni ko'rар, jinoyat ishlardan esa jamiyat uchun deyarli xavf tug'dirmaydigan mayda jinoyatlarni masalan, mayda o'g'rilik, haqorat qilish, badanga yengil shikast yetkazish kabi jinoyatlarni ko'rganlar.

1865 yilda «Turkiston viloyatini idora qilish haqida vaqtincha Nizom» qabul qilinib, unga asosan, Turkistondagi barcha ma'muriy idoralar va sud Turkiston harbiy gubernatoriga bo'ysundirildi. Mayda jinoyatlardan boshqa barcha jinoyatlar Chor xukumatining sudlari yoki harbiy sudlarda ko'rilib, Chor Rossiyasi jinoyat qonunlari asosida hal qilish boshlandi.

Chor Rossiyasi Markaziy Osiyoda ma'lum darajada shariat qonunlarini saqlab qolish yo'li bilan, shariat bo'yicha kolonial hokimiyat va idoralarga xalqni bo'ysundirish uchun foydalangan. Ayniqsa, davlat soliqlarini undirish masalasida shariat qonunlardan keng foydalanib kelishgan.

Turkistonni qozoq va qirg'iz millatiga mansub aholisi yashaydigan joylarda joriy etilgan yangi Nizomga binoan, biylar sudi tashkil etildi. Biylarning jinoyat ishlarni kurish huquqi chegaralangan bo'lib, ular o'z ishlarni odat huquqiga asosan olib borganlar. Biy sudlari tomonidan shaxsga qarshi, mulkka qarshi (talonchilik va boskinchilikdan tashqari oilaviy mojarolardan kelib chiqadigan jinoyatlar, musulmon diniga qarshi sodir qilingan jinoyatlarnignna ko'rganlar. Boshqa barcha jinoyatlar Rossiya imperiyasi jinoyat qonunlari asosida xal qilingan.

Odat huquqi qonun tariqasida e'lon qilinmay, og'zaki, avloddan avlodga o'tib kelayotgan tartiblardan iborat bo'lган.

1917 yil Oktabr to'ntarishidan keyin xam qozi va biy sudlari vaqtincha saqlab qolindi.

Buxoro amirligi va Xorazm xonligi Sovetlar bosqini tufayli 1920 yili tugatildi va Sovet davlati tarkibiga kiruvchi Buxoro Xalq Respublikasi va Xorazm Xalq Respublikasi tashkil qilindi, Bu davlatlarda shariat qonunlariga amal qilish to'xtalib, to'lasincha sovet qonunlari joriy qilindi.

1922-yil 24-mayda RSFSRning Jinoyat kodeksi qabul kilindi va bu Kodeksning Turkiston Respublikasida ham amal qilinishi to'g'risida 1922-yil-21 iyulda Turkiston Markaziy Ijroiya qo'mitasi tomonidan qapop qabul qilindi. Bu kodeks Buxoro va Xorazm Xalq Rsspublikalari hududiga xam joriy kilindi².

1924-yil SSSR tashkil etilib, O'zbekiston ittifoqdosh respublika sifatida SSSR tarkibiga kirdi.

SSSR tashkil etilganidan keyin 1924-yil 31-oktabr "SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asosiy qoidalari" qabul qilinib, unda jinoyat huquqi Umumiy qismining muhim qoidalari

² Сулеймонопа Х.С. История советского государства и право Узбекистана. II жилд. - Тошкент: Ўз CCP ФА, 1960. 405-406 ст.

bayon qilindi. Asosiy qoidalar Umumittifoq qonuni bo‘lib, barcha ittifoqdosh respublikalar hududida birday amal qilish boshlandi.

1926-yil 16-iyunda O‘zbekiston SSRning birinchi Jinoyat kodeksi qabul qilinib, 1926-yil 1-iyuldan amalga kiritildi. (Bu Qodeks o‘sha davrda Tojikiston ASSR da ham amal qilar edi). Ushbu Jinoyat kodeksi Umumiylar Maxsus qismlardan iborat bo‘lib, Umumiylar qismi to‘rt bo‘limdan, Maxsus qismi o‘n bobdan iborat edi.

Ushbu kodeks umumittifoq qonuni hisoblangan, 1924-yil 31-oktabrda Qabul qilingan «SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asosiy qoidalar»ga muvofiq ravishda qabul qilingan.
MUHOKAMA

O‘zbekistonning bu jinoyat kodeksi 1960-yil 1-yanvargacha amalda bo‘ldi. Ushbu jinoyat kodeksi asosan davlatni, shu davrda mavjud bulgan davlat tuzumini himoya qilishga, usha zamon nuqtai nazaridan aytganda sinfiy dushmanlarga qarshi qaratilgan. 1950 yillarning oxiriga kelib, Sovet davlati o‘zining yangi rivojlanish bosqichiga kirgan, usha davr nuqtai nazaridan aytganda tepluatorlar (mulkdorlar) sinfi sifatida tamoman tugatilgan, jamiyat a’zolari ishchi-dehqon, ziyoilardan, ya’ni mexnatkashlardan iborat edi. Shunga ko‘ra qonunlarni, shu jumladan jinoyat qonunlarini qayta ko‘rib chiqish zarurati kelib chiqib, 1958-yil 25-dskabrdas Umumittifoq jinoyat qonuni hisoblangan uchta qonun qabul qilindi.

«SSR Ittifoqi va Ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunlari Asoslari» jinoyat huquqining Umumiylar qismidan iborat bo‘lib, barcha Ittifoqdosh respublikalar o‘zlarining Jinoyat kodekslarini shunga muvofiq ravishda ishlab chiqishlari va qabul qilishlari kerak edi. Davlatga qarshi va harbiy jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi Umumittifoq, qonunlari hech qanday o‘zgarishsiz Ittifoqdosh Respublikalar Jinoyat kodeksiga kiritilishi shart bo‘lgan. Bu qonunga qo‘sishchalar va o‘zgartirishlar kiritishga Ittifoqdosh respublika haqli emas edi. Bulardan tashqari, UmumIttifoq qonuni sifatida SSR Ittifoqi manfaatlariga qarshi jinoyatlar uchun javobgarlikni belgilovchi SSSR Oliy Sovet Prezidumining farmonlari chiqarilib, bular ham UmumIttifoq akti hisoblanib, ittifoqdosh respublikalar hududida bir vaqtida va bir xilda amal qilar edi. Bularga, masalan, «Zurlab nomusga tekkanlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi 1962 yil 20 fevral farmoni, «Poraxurlik uchun jinoiy javobgarlikni kuchaytirish tug‘risida»gi 1962 yil 20 fevral farmoni, «Bezorilik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida»gi 1966 yil 26 iyul farmoni va boshqalar. Agar Ittifoqdosh respublikaning Jinoyat kodeksining muddasi o‘sha farmonga muvofiqlashtirilsa, JKnning o‘sha muddasini faqat umumittifoq akti asosidagina o‘zgartirish mumkin bo‘lgan. Yuqorida aytganlardan ko‘rinib turibdiki, sobiq SSSR rasmiy jihatdan federativ davlat hisoblangan bo‘lsada, aslida unitar davlat sifatida boshqarilar edi. Har bir sovet fuqarosi, masalan, Kareliyada yashovchi fin yoki Moskvada yashovchi rus, Chukotkada yashovchi chukcha yoki Turkmaniston cho‘lida yashovchi turkman, O‘zbekistonda yashovchi o‘zbek yoki Belorusiyada yashovchi belorus bo‘lishidan qat’iy nazar, ularning tili, dini, urf-odatlari, ana’analari, tarixiy xususiyatlari taraqqiyot darajasi va hokazo xususiyatlardan qat’iy nazar, kommunizm quruvchisining axloq kodeksida belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak edi.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Umumittifoq qonunlari hisoblangan yukorida aytilgan qonunlar asosida 1959 yil 21-mayda O'zbekistonning yangi Jinoyat kodeksi qabul qilinib, 1960-yil 1-yanvardan amalga kiritildi. Bu JKning umumiy qismi to'rt bo'limdan iborat bo'lib, birinchi bo'limida jinoyat qonuniinng umumiy qoidalari, ikkinchi bo'limi jinoyat tug'risida, uchinchi bo'lim jazo xaqida, to'rtinchi bulm jazo tayinlash va jazodan ozod qilish to'g'risidagi normalardan iborat bo'lgan.

Ushbu JK 1995-yil 1 aprelgacha amalda bo'ldi. Agar O'zbekistanning 1926 yili qabul qilingan JKda analogiyadan foydalanilgan bo'lsa, 1959-yil 21-mayda qabul qilingan JKda analogiyadan tamoman voz kechildi.

Jinoyatchilikning sabablari tugrisidagi sobiq sovetlar davrida marksizm nazariyasiga asoslangan insoniyatning qarama-qarshi sinflarga bo'linishidan kelib chiqilar edi.

NATIJA

Sotsializmda sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanib borgan sari, jamiyat a'zolar barkamol bo'lib boradi va natijada jinoyatchilik borgan sari kamayib boradi degan nazariya hukmron edi. 1959-yili qabul qilingan JK da shu nuqtai nazardan ishlab chiqilgan. Aslida esa sobiq Sovet ittifoqida sotsialistik ijtimoiy munosabatlar shakllanmay jamiyatda ma'muriy buyruqbozlik tizimi xukmron bo'lган. Bunday sharoitda jinoyatchilik kamaymadni, sotsialistik ijtimoiy munosabatlar rivojlanmadni. Jamiyatning inqirozi chuqurlashib bordi. Agar hozirgi bozor iqtisodiyoti tizimida mulkdorlar sinfini shakllaitirish ochiqdan-ochiq e'lon qilingan va jamiyatda qonuniy hodisa hisoblangan sari u davrda bunday holat yashirin bo'lib, o'z-o'zidan jinoyatni tug'dirib turar edi. Hatto insonlar o'rtasida asrlar osha bo'lib turgan iqtisodiy munosabatlar - shaxslarning xususiy savdo (chaykovchilik) bilan shug'ullanishi, xususiy shaxslarning mug'ombirlik faoliyati bilan shug'ullanishini qonun yo'li bilan taqiqlab qo'yilganliginnng o'zi o'z-o'zidan jinoyatchilikni tug'dirib turaverar edi U'sha davrdagi boshqaruv va xo'jalik yuritish tizimi o'z o'zidan mansabdorlik jinoyatlarining xo'jalik jinoyatlarining ko'payib ketishiga sabab bo'lgan.

Yirik rus kriminolog olimi V.V. Luneevning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, XX asrning 60-yillarida sobiq Sovet davlatida g'araz maqsadlarda sodir etiladigan jinoyatlar 40-45 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 1989 yil bu kursatkich 70 foizga ko'tarildi³.

O'sha davrdagi mavjud boshkaruv tizimi jinoyatchilikning o'sishini to'xtatishga qodir bo'lmay qoldi. Natijada jinoyat qonuni orqali jinoyatchilikning o'sishini to'xtatishga harakat qilindi. 1961-1991 yillar mobaynida O'zbekiston JKga 350 dan ortik qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritildi. Ammo jamiyatning inqirozi borgan sari chuqurlashib, Sovet davlati 1991 yilga kelib o'z hayotini tugatdi, sobiq; sovet Ittifoqi tarkibiga kiruvchi Ittifoqdosh respublikalar ichida birinchilardan bo'lib O'zbekiston o'z mustakilligini e'lon qildi. O'zbekiston bozor iqtisodiyoti tizimiga asoslangan huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'liga o'tdi.

XULOSA

³ Лунеев В.В. Преступность в СССР. Основные тенденции и закономерность. // Советское государство и право, 1991, -№8,—С.,94.

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023

Mustaqil O'zbekistonning yangi qonunlarini ishlab chiqish va qabul qilish boshlandi. 1992 yil 8 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi barcha soxa, shu jumladan yangi JKni ishlab chiqish va qabul qilish uchun tula sharoit yaratib berdi. 1994 yil 22 sentabrda mustaqil O'zbekistonning birinchi JK qabul qilinib, 1995-yil 1-apreldan amalga kiritildi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak 127 yil qaramlikdan keyin birinchi bo'lib O'zbekiston Respublikasining jinoyat kodeksi qabul qilindi.

REFERENCES

- 1.Bakirov X Chor Turkisgonida sud, shariat va odat.-T.: «Fan», 1967,3-bet.
- 2.Rasulov O. X. Sovet jinoyat huquqi. Umumiyl qism. - Toshkent: O'qituvchi. 1969, -B.26.
- 3.Сулаймонопа Х.С. История советского государства и право Узбекистана. ИИ жилд. - Ташкент: Ўз ССР ФА, И960. 405-406 ст.
- 4.Лунеев В.В. Преступность в СССР. Основные тенденции и закономерность. // Советское государство и право, 1991, -№8,—C.,94.